

## SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA UCHROVCHI DALA CHUMCHUG'INI UYA QURISH TEXNOLOGIYASI

**Boboxonov Muzaffar Ziyodullayevich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

**Abdujabborov Adham Eshmirza o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11095936>

*Annotatsiya.* Ushbu ilmiy maqolada Surxondaryo viloyatining turli ekologik biotoplarda joylashgan aholi punktlari va agrotsenozlarida uchrovchi dala chumchug'ining bioekologik xususiyatlari ko'p yillik kuzatuv natijalari asosida tahlil etiladi.

*Kalit so'zlar:* Dala chumchug'i, biotop, agrotsenoz, uya qurish, qush.

## ТЕХНОЛОГИЯ ГНЕЗДОВАНИЯ ПОЛЕВОГО ВОРОБЬЯ В УСЛОВИЯХ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

*Аннотация.* В данной научной статье на основе результатов многолетних наблюдений анализируются биоэкологические особенности полевого воробья, встречающегося в населенных пунктах и агроценозах, расположенных в разных экологических биотопах Сурхандарьинской области.

*Ключевые слова:* Полевой воробей, биотоп, агроценоз, гнездостроение, птица.

## NESTING TECHNOLOGY OF THE THREE SPARROW IN THE CONDITIONS OF SURKHANDARYA REGION

*Abstract.* The results of the analysis based on long-term observation of the bioecological characteristics of the field locust found in various ecological biotopes of the Surkhandarya region.

*Key words:* Field sparrow, biotope, agrocenosis, nest building, bird.

**Kirish.** Qushlarning ekotizimlarda tutgan o'rni juda xilma-xildir. Serxarakatlilik, turli yashash muhitlarida tarqala olish xususiyati ularning amaliy ahamiyatni yanada oshishiga sabab bo'ladi. Muayyan hududning geografik joylashuvi, iqlimiy xususiyatlari, xo'jalik yuritish faoliyatining turli-tumanligi va boshqalarga ko'ra, bir turga mansub qushlar turli hududlarda turlicha ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Dala chumchug'i turli biotoplarda xayot kechiradi. U asosan binolarning devorlaridagi bo'shliqlarda, tomlarning tirqishlarida, ba'zan jarliklarda ham uya quradi. Ivanovning ma'lumotiga (1969) ko'ra dala chumchuqlari o'z uyalarini turli kovaklarga shuningdek daraxt shoxlarining ayri joylariga qurishadi.

Tadqiqotlarimiz 2021-2023-yillar davomida Surxondaryo viloyatining shimoliy va

janubiy biotoplaridagi tumanlarida amalga oshirildi. Biotoplar sifatida aholisi zich ammo antropogen ta'sirlar birmuncha past Denov tumani hamda aholisi zich va antropogen ta'sirlar birmuncha kuchli bo'lgan Termiz shahri tanlab olindi. Aholi punktlari va agrotsenozlarida tadqiqotlar statsionar va marshrutlar bo'yicha kuzatishlar asosida olib borildi. Uya qurishda ishtirok etuvchi qushlarning ko'payish mavsumida, oziqlanish intensivligi va oziq spektrini aniqlash maqsadida dala chumchug'ining 5 ta uyasida sutkalik kuzatishlar olib borildi.

Bizning olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, Denov tumani hududlarida mazkur qush uyalarini ko'proq koloniya bo'lgan holda quradi. Uya qurish joylari bo'lib esa asosan yangi qurilgan imoratlarning yoriq tirqishlari cherdaklar osti, jarliklar, boshqa qushlar tomonidan qurilgan inlar va kamdan-kam hollarda daraxtlar xizmat qiladi. Biz ko'pchilik hollarda dala chumchug'ining odamlarga yaqin hududlarga uya qurganligining guvohi bo'ldik. Dala chumchug'i uyasini juda pishiq bo'lib, uya kirish teshigidan boshlanadi. Uyalari ichki qismi quruq va yashil o'tlardan va patlar kabi momiq materiallardan tuziladi.

Dala chumchug'i uya materiallari sifatida ko'pincha yovvoyi o'tchil o'simliklarning poyalari, daraxtlarning barglari, qushlarning par va patlari, o'simlik ildizlari ildiz po'stloqlari, g'alladoshlar oilasiga mansub o'simlilarning barglari va poyalari, paxta, qog'oz va polietilen parlardan foydalaniladi [2].

Bizning kuzatishlarimizga ko'ra esa dala chumchug'i asosan uyalarini antropogen landshaftlarga quradi. Jumladan biz ularning uyalarini binolar devorlari yoriqlarida va daraxtlar kovaklarida joylashganligining guvohi bo'ldik. Shuni alohida aytish lozimki daraxtda qo'yilgan uyalar o'lchamlari tom sifati va boshqa ichkaridagi joylashgan uya o'lchamlariga nisbatan qalinroq va kattaroq ekanligi ma'lum bo'ldi. Bizning kuzatishlarimizga ko'ra ba'zi hollarda dala



chumchug‘i qaldirg‘och uyalarini egallab olib tuxum qo‘yishini kuzatdik.

**1-rasm. Dala chumchug‘i (*Passer montanus*) ning qaldirg‘och uyasini egallab olib tuxum qo‘yishi**

Kuzatishlarimizga ko‘ra dala chumchug‘i aprel oyi boshlarida to‘liq juftlashib, koloniya bo‘lib uchib yurishib uya qurishga kirishdi. 1-jadvalda dala chumchug‘i uyasi o‘lchamlari keltirilgan. Unga ko‘ra o‘rtacha uyaning yerdan balandligi 330 sm, uya diametri 156.2 mm, uya balandligi 93 sm, uya kosachasi chuqurligi 81 mm, uya kosachasi diametri 85.5 mm, uyada kirish teshigi 66 mm ni tashkil etdi.

№	Uyaning joylashgan o‘rni	Uyaning yerdan balandligi (sm)	Uyaning diametri (mm)	Uyaning balandligi (mm)	Uya kosachasi chuqurligi (mm)
1	Tom shiftida	350	160	85	75
2	Tom shiftida	320	153	90	85
3	Devor yorig‘ida	265	140	95	75
4	Qayrag‘och daraxtida	395	185	100	85
5	Tom shiftida	320	143	95	85
	O‘rtacha	330	156,2	93	81

**1-jadval. Dala chumchug‘i uylarining o‘lchamlari**

**Xulosa.** Dala chumchug‘i kichkina qush bo‘lsa ham bizning ongimizda moslashuvchanlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Dala chumchug‘i gala bo‘lib uchib, ayniqsa polaponlari uchirma bo‘lgan davrda don - mevachilik xo‘jaliklariga ziyon yetkazadi, ular hosildorligini kamaytiradi. Lekin qishloq xo‘jalik zararkunanda hasharotlari va ularning lichinkalarini terib yeb esa foyda keltiradilar. Shuning uchun ular sonining haddan tashqari kamayib ketishiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarur.



**REFERENCES**

1. Иванов А.И. Птицы Таджикистана. Л.-М., изд-во АН СССР, 1969.- 300с.
2. Носков Г.А. ва бошқ. «Полевой воробей». Л.Издательство ЛГУ, 1981.
3. Рахмонова З.Р, Лаханов З.Р.«Dala chumchug'ining (Passer montanus L.) Samarqand shahri sharoitida ko'payish ekologiyasi/ Biologik xilma-xillikni saqlash muammolari».Ilmiy konferensiya ma'ruzalari to'plami. Tashkent,2006.
4. S. Dadayev, Q. Saparov „ZOOLOGIYA”(Xordalilar 2-qism) O'zbekiston Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011